

HARBIY LIDERLIK PSIXOLOGIYASINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qo'chqarov Jasurbek O'ktamboy o'g'li

Ish joyi: Geologiya fanlari universiteti

ANNOTATSIYA

Hozir kundan kunda rivoj topib kelayotgan davrda liderlarga bo'lgan talabning kuchayganligini tan olmasdan ilojimiz yo'q. Harbiy sohadi liderlik qilish juda mas'uliyatli va katta kuch talab qilinadigan xizmat bo'lib, ushbu ishni ko'proq o'rganish va liderlarga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Lider o'z bo'yniga mas'uliyatni oluvchi, tashabbuskor, muloqotda kommunikatsiyaga ega va safdoshlari orasida tenglikni saqlay oluvchi shaxs hisoblanadi. Ushbu maqolamizda harbiy liderlik va uning o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatlarini yoritib berishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: harbiy lider, shaxs, tashabbuskor, iste'dod, kommunikatsiya, xarizmatik liderlik, muloqot, faollik, kirishimlilik, kuzatuvchanlik,

KIRISH

Harbiy soha murakkab va mushkul sohalardan biri bo'lib harbiylardan malaka va ko'nikmalarni talab qiladi. Har bir mehnat jamoasining jamoa orasida o'z liderlari bo'lganidek harbiy soha vakillari ichida ham lider bo'lgan shahslar mavjuddir. Biroq harbiy jamoa orasidagi liderlarning oddiy mehnat jamoasidagi liderlardan ancha farqli va murakkabroq tuzilishga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

“Liderlik” tushunchasini tahlil qilishda xilma-xil nazariyalar mavjud. Jumladan, A.Bagardus, F.Grinstayn, R.Stogdillarning xislatlar nazariyasi namoyondalari bo'lib, mazkur olimlar liderlarning aqli, kuch-quvvati, salomatligi va boshqa hislatlariga alohida e'tibor qaratadilar. Bu xislatlarga ega shaxsni ular liderlar, deb hisoblashadi.

Yana bir yondashuv - vaziyatli liderlik nazariyasi bo'lib, asoschilari: A.Taninbaun, A.Shmit, M.Fidler, A.Blonshar, E.Rum va boshqalar. Mazkur nazariyaga ko'ra, liderni asosan ma'lum bir vaziyat shakllantiradi.

Shuni unutmash kerakki, qachonki, harbiy sohadagi liderning safdoshlari uning borligiga, kuch-qudratiga va iste'dodlariga shubha bilan qarashmasa, unga ishonch bildirishsa lider eng katta kuchga ega bo'ladi. Shundagina liderni boshqalardan ajratib turuvchi tomonlari uni yuksaklikka olib chiqish yo'lida xizmat qiladi. Liderning boshqalardan ajralib turushiga sabab bo'luvchi asosiy tomonlaridan biri - bu liderning eng avvalo, o'ziga va unga ergashayotgan safdoshlariga bo'lgan ishonchi. Buyuk

allomalarimiz aytganidek, o'z kuchingni his etishing kuchingga kuch qo'shadi. Lider hamma vaqt biror bir ishni boshlashdan avval atrofidagilar bilan maslahatlashishi va unga yuklatilgan topshiriqlarning bir qismini ularga ishonib topshirishi darkor. Bu bilan u o'z harbiy safdoshlariga bo'lgan ishonchi yuqorida darajada ekanligini isbotlab bergan bo'ladi.

MUHOKAMA

Lider o'zining kuchli va ustun jihatlari yaxshi biladi hamda imkon qadar ulardan unumli foydalanishga intiladi. Shu bilan birga u o'zining kuchsiz tomonlarini ham tan ola biladi va ularni zaifligicha qoldirmaslik yo'lida to'g'irlashga harakat qiladi.

Harbiy liderning asosiy qurollaridan biri uning muloqotni to'g'ri yo'lga qo'ya olishidadir. Lider, ham safdoshlarining bir-biriga bo'lgan, ham o'zining ularga bo'lgan muloqotini ta'minlab bera oladigan kuchga ega shaxs bo'lishi darkor. Muloqot orqali lider guruhdoshlarini ruhlantira olishi va ulardagi "men"ni "biz"ga aylantira olishi kerak. Bu orqali u izdoshlarini guruh uchun qayg'urishga va ularni birlashtirishga erishgan bo'ladi. Guruh qanchalar ahil, kelishuvchan va hamfikir bo'lsa, o'z oldiga qo'yilgan maqsadlariga shunchalar tez va oson erisha oladi. Marralarni zabt etishda esa muloqotning o'rni beqiyosdir.

Harbiy lider o'zi istagan va kutgan natijaga erishishi uchun, avvalo, unda javobgarlik va mas'uliyat hissi yuqori bo'lishi kerak. Lider safdoshlarining har biri uchun javobgar shaxs bo'libgina qolmay, unga yuklatilgan vazifani mas'uliyat bilan ado eta olishi ham kerak. U safdoshlari haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi va ulardan har birining kuchli va zaif tomonlarini, iste'dodini juda yaxshi bilishi kerak. Ularni har qanday vaziyatda ham qo'llab-quvvatlashi, ko'maklashishi va dalda bera olishi kerak. Qachonki lider har bir vazifani bajarishda mas'uliyatni his qilgan ekan, uning har bir ishi unumli va o'z vaqtida hal bo'ladi.

Harbiy lider guruh a'zolari orasida kelishib ish ko'rishni ta'minlay olishi ham kerak. Undan guruhdagi har bir safdoshining fikri bilan qiziqishi, ularni bir maqsad yo'lida murosaga keltira olishi talab qilinadi. Zero, barcha bir maqsad yo'lida tirishar, hamfikir bo'lib ishlar ekan ularning marrani zabt etishi yo'lida duch keladigan qiyinchiliklari ham osongina yengib o'tiladi.

Lider va uning izdoshlari ko'zlagan marraga erishar ekanlar, lider rag'batlantirishni unutmasligi kerak. Rag'batlantirish orqali u o'z safdoshlarini ilhomlantira va olg'a intilishga unday oladi. Rag'batlantirish haqida gap borar ekan, yetakchilar albatta, jazolashni ham chetlab o'tishmaydi. Lekin har bir narsaning me'yori bo'lganidek, lider ham buning me'yorini bilishi foydadan holi emas. Jazoni haddan ziyod ko'p qo'llash rivojlanish saviyasining pasayishiga sababchi bo'lishi mumkin. Agar lider kutgan natijaga erisha olmasa va bunday vaziyatda buning sababini topib uni yechishdan ko'ra, jazolashni ma'qul ko'rsa u guruh a'zolarini shunga

ko'niktirib qo'yadi. Buning oqibatida esa guruhda oldinga intilish va o'sish kabi tushunchalar yo'qolib boradi.

Lider har qanday vaziyatga va sharoitga tez hamda osonlik bilan moslashib keta olishi kerak. U har qanday davrada o'zini qanday tutishni bilishi va u yerga, u yerning shart-sharoitlariga moslashgan holda ish ko'rishi lozim. Moslashuvchanlik, eng avvalo, kommunikatsiya qobiliyatlarini ham talab qiladi.

Zamonaviy liderning intellektual salohiyati ham yuqori bo'lishi kerak, ya'ni u dunyoviy bilimlarga ega bo'lishi, kompyuter texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, har bir jabhada o'zini sinab ko'rgan va yetarlicha ko'nikma hosil qilgan bo'lishi darkor. Har tomonlama rivojlangan, ma'nan va jismonan komillikka erisha olgan, liderlik xususiyatlariga ega bo'lgan shaxs jamiyatda o'z o'rnini topa olishiga ishonchim komil.

Liderning xos bo'lgan har bir jihatning ahamiyati shundaki, ularning barchasi bir-biri bilan uzviy bog'liqdir, biri birini inkor qila olmaydi, aksincha, bir-birini to'ldirishga xizmat qiladi. Masalan, u o'ziga ishonsagina safdoshlariga ham ishona oladi. Bu uzviy bog'langan ishonch ulardagi optimistik ruhni keltirib chiqaradi. Har qanday positiv kayfiyatdagi inson esa to'g'ri va obdon o'ylangan qarorlar qabul qila olishi mumkin. Javobgarlik va mas'uliyatni his qila olish qobiliyati esa liderni yuksak cho'qqilar sari yetaklaydi.

Harbiy liderning yana bir o'ziga xos muhim jihatlaridan biri – bu optimistik ruhda fikr yuritishida, ya'ni har bir o'z burchidan kelib chiqib ko'zlagan maqsadni faqat yaxshi tomonlarini va puxta o'ylab ish ko'rishidir. Yana u to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim hisoblanadi. Ba'zilar uzoq o'ylab qarorlarini bir necha marta o'zgartirishsa, lider bir marotaba qaror qabul qiladi va o'z qaroridagi javobgarlikni o'z zimmasiga oladi va yetakchilik namunasini ko'rsatadi. Shu sababdan liderlarni kelajakni ko'ra olish qobiliyatida taxminlarga tayanmasligi, o'z ma'naviyatini yuksaltirib borishi zarur. Chunki harbiy sohada birgina qilingan xato yurtga sezilarli ziyon olib kelishi mumkindir.

Liderlar ofitser yoki harbiy xizmatchilar bo'lishidan qat'i nazar, harbiy xizmatchilarga odatda o'z martabalarini davomida yetakchilik mas'uliyati yuklanadi va harbiy xizmatda eng samarali bo'lgan yetakchilik uslublarini aniqlash juda muhimdir. O'rganilgan izlanishlardan kelib chiqib quyidagi harbiy liderlik turlarini ajratishimiz mumkin. Ularga rahbarlik lideri, oddiy harbiy lideri va ishtirokchi liderlari kiradi.

Ularni birma-bir ko'rib chiqamiz, rahbariyat liderligi bu – qo'l ostidagilarning individual o'sishini qo'llab-quvvatlash va tashkiliy takomillashtirishga qaratilganidir. U boshqalarni ilhomlantirish va kerakli o'zgarishlarni rag'batlantirishga ham e'tibor qaratadi. Bundan tashqari, **rahbariyat liderligi** xarizmatik va vaziyatli liderlarni yaratadi, bo'lajak liderlarni rivojlantirishga sarmoya kiritadi va bo'ysunuvchi harbiylarda qarash va maqsadni shakllantiradi. Masalan, **rahbariyat liderligi** qo'l

ostidagiga topshiriqning maqsadini tushuntirmasdan topshiriqni bajarishga buyruq berish o'rniga, vazifa nima uchun muhimligini va umumiy ishga qanday hissa qo'shishini tushunishga yordam berish orqali bo'ysunuvchilarni rag'batlantiradilar. Rahbariyat liderlar o'z qo'l ostidagilardan fikr-mulohazalarni izlaydilar va ularga bo'ysunuvchilarga ishni bajarish uchun vositalarni, mas'uliyat va ishonch hissini beradilar.

Oddiy harbiy liderligi – bu liderlik uslubining yana bir muhim uslubi oddiy askarlarning yetakchiligi bo'lib, unda o'z jamoalari a'zolarining ehtiyojlarini qondirish orqali o'z atrofidagilarning rivojlanishiga yordam berad. Ushbu liderlikda rahbar va unga bo'ysunuvchilar o'rtasidagi ishonchga asoslanadi, bu esa jamoa o'rtasida munosabatlar va yaqinlikni rivojlantiradi. Tegishli vaqtda oddi askarning yetakchiligidan foydalanish rahbarga ishga kelishni xohlaydigan va g'ayratli jamoani yaratishga yordam beradi. Bunday yetakchilik uslubi qo'l ostidagilarning motivatsiyasini ham oshiradi, chunki ular o'z rahbarining orqasida ekanligini his qilishadi. Oddiy harbiy liderlar o'z atrofidagilar bilan qarorlar qabul qilishda, boshqalarga maslahat berishda va bo'ysunuvchi harbiylarga eng yaxshi natijaga erishishda yordam berishda hamkorlik qiladilar.

Harbiy sohada qo'llanadigan yana bir muhim yetakchilik uslubi - bu ishtirokchi yetakchilik. Ishtirokchi yetakchilik butun jamoani qaror qabul qilish jarayonlarini jonlantirib turadi. Ishtirokchi yetakchilik hatto kichik harbiy xizmatchilarga ham tashkiliy jarayonlarni qanday yaxshilash mumkinligi haqidagi g'oyalarini baham ko'rish imkonini beradi. Ko'pincha, kichik harbiy xizmatchilar hech kim qilishni xohlamagan ishlarni bajarishlari mumkin va vazifalarni qanday qilib samaraliroq bajarish haqida foydali g'oyalarga ega bo'lishlari mumkin. Ishtirokchi yetakchilar hali ham yakuniy qarorlarni qabul qiladilar va bo'ysunuvchi harbiylar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga rioya qilishlari shart emas, ammo bo'ysunuvchilar rejalarni ishlab chiqishda yordam berishi mumkin. Bu tuyg'u qo'l ostidagilar uchun vazifalarni o'z imkoniyatlarini maksimal darajada bajarish uchun katta rag'bat yaratadi, chunki ular bu vazifalarni "o'z" rejasining bir qismi deb bilishadi.

NATIJARLAR TAHLILI

Demakki yaxshi harbiy liderlar harbiy xizmat sohasi uchun turli imtiyozlar yaratadilar hamda ular harbiylarning ma'naviyatini oshirishi va xizmatdagi bo'lajak liderlarni rivojlantirishiga sababchi bo'lishlari mumkin.

Harbiylar orasida liderlarning bir qancha liderlik qobiliyatlari ham mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- harakatga keltiruvchi tashkilotchilar (rasmiy) liderlar;
- ruhiy kayfiyatga chorlovchi (da'vatkor) liderlar;
- tashabbuskor (ijodkor) liderlar;

- bilimdon (ilmiy salohiyatli) liderlar;
- mohir, ishbilarmon, ishni hammadan yaxshi (sifatli) bajara oladigan liderlar.

Bundan tashqari biz shuni anglashimiz lozimki, liderlarning o'ziga xos xususiyatlari ham bo'lib, ular quyidagilar:

- ishonch - o'z bilim va tajribasini qo'llash;
- faollik - g'ayrat bilan harakat qila olish;
- bilimdonlik - ishni chuqur bilish orqali namoyon qilish;
- kirishimlilik - o'zgalar bilan muloqotga tez kirishish, samimiy bo'lish, insonlararo muloqotga ehtiyoj;
- zehnlilik - voqea-hodisaning mohiyatini tezda anglash, uning sabab va natijasini oldindan ko'ra bilish, eng muhimini aniqlay olish;
- qunt-matonatlilik - iroda kuchini namoyon qila olish, qat'iyatlik, ishni yakuniga yetkaza olish;
- dadillik - his-tuyg'u va harakatlarini, ayniqsa, qiyin vaziyatlarda nazorat qila olish;
- mehnatkashlik - bardoshlilik, murakkab vazifalarni bajara olish qobiliyati;
- kuzatuvchanlik - ishni ko'ra bilish, yo'l-yo'lakay muhimini ajratish, maydachuyda narsalarni fahmlay olish;
- tartiblilik - o'z xatti-harakatlarini rejalashtira olish, ketma-ketlikni aniqlay olish;
- mustaqillik - mulohaza yuritishda mustaqillik, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.
- tashkilotchilik ziyrakligi - o'zgalarni tushunish, ularning ichki olamiga kira olish, individual fazilati, kayfiyatini inobatga olgan holda masalaga yondashish;
- faol psixologik ta'sir kuchiga egalik - yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda, ularning xususiyatidan kelib chiqib, insonlarga turli usullar bilan ta'sir o'tkaza olish;

- yetakchilik mas'uliyatini o'ziga olish. Yetakchining asosiy xususiyatlaridan biri - yoshlar orasida "bir qadam oldin"da bo'lish. U yangiliklardan doimo xabardor, boshqalar uchun ochiq bo'lmagan axborotga ega bo'lishi kerak. Barcha jabhada yoki sohada axborotga egalik qilish boshqalardan ustun bo'lish imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo'lsak, harbiy lider - jamiyatning ertangi kuni to'g'risida qayg'uradigan eng buyuk insonlar sirasiga kiradi. Ular "Agar men bo'lmasa, kim?" degan fikrda hayot kechirar ekanlar, bizni porloq kelajak kutayotganiga ishonamiz.

1. Harbiy liderlar ma'naviyaini oshirishi, izlanish olib borishi, texnika va texnologiyalarni bilishi zarur.

2. Bundan tashqari, har qanday vaziyatlarga ko'nika olishi, kommunikatsiyada tashabbuskor bo'lishi zarur.

3. Rag'bat va jazoni o'z o'rnida qo'llay olishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Day, D. V. (2000). Leadership development: A review in context. *Leadership Quarterly*, 11, 581–613.
2. Day, D. V. (2007). Structuring the organization for leadership development. In R. Hooijberg,
3. J. G. Hunt, J. Antonakis, & K. Boal (Eds.), *Being there even when you are not: Leading through structures, systems, and processes* (pp. 13–31). London, England: Elsevier.
4. Рахимова, И. И. (2014). Факторы формирования психологической зависимости от компьютерной игры в подростковом возрасте. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, (1-2), 221-226.
5. Рахимова, И. И., & Османова, Д. (2019). Влияние интернета на нашу жизнь. *Студенческий вестник*, (3-1), 43-45.
6. Сафаев, Н. С., & Рахимова, И. И. (2018). Зависимость от компьютерных игр в юношеском возрасте. In *Человек в условиях социальных изменений* (pp. 115-117).
7. www.expert.psychology.ru
8. www.psychology.all.ru
9. www.psychology.net.ru
10. <https://cove.army.gov.au/article/leadership-focus-emotional-intelligence-leadership-and-resilience>